



“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONI MATNIDA QO‘LLANILGAN ETNOGRAFIZMLAR XUSUSIDA

Noraliyeva Dildora Abduvalikovna,

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Inson hayotidagi turli jihatlarni qamrab olgan folklor ijodiyotining shakllanishi va rivojlanishida etnografik voqelik va uning unsurlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu unsurlar, avvalo, o‘ziga xos shakl, leksik-semantik xususiyatlarga ega bo‘lgan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday birliklar folklorida shunchaki qo‘llanmaydi, balki xalq madaniy hayotidagi muhim jihatlarni aks ettirishga ta’sir ko‘rsatadi. Folklor namunalarida kundalik hayotning oddiy, bo‘rttirilmagan va empirik tafsilotlari tasvirlanishi etnografizmlarning qo‘llanishidagi tabiiylikni ta’minlaydi. Albatta, xalq dostonlaridagi bosh qahramonlar va ularning raqiblarining jismoniy, aqliy imkoniytlari tasvirida oddiylikdan biroz chekinish holati kuzatiladi. Shuningdek, xalq dostonlarida ijrochining mahoratidan kelib chiqqan holda oddiygina bayonchilikdan qochish, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida turli badiiy-tasviriy vositalarga murojaat qilinishi ham me’yoriy holatdir. Bunda ham boshqa lingvokulturologik birliklar qatorida etnografizmlarga ham murojaat qilinadi.

Etnografizmlar alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi, ammo ulardan chegaralanganlik belgisini qidirish maqsadga muvofiq emas. Chunki etnografizmlarning qo‘llanish doirasi chegaralangan, deb bo‘lmaydi. Ammo bunday leksik birliklar muayyan xalq madaniyatiga doir tushunchalarni ifodalashi bilan alohida guruhni tashkil etadi. Masalan, ayol va erkak orasidagi nikoh tushunchasi o‘zbek tilida bir nechta shaklda ifodalanishi mumkin. Aynan shu tushunchani ifodalovchi bir nechta shakl “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida qo‘llangan. Umuman, turkiy tillardagi lingvokulturologik tadqiqotlarda nikoh bilan bog‘liq leksik birliklar alohida e’tibor bilan o‘rganilgan¹. Ta’kidlanganidek, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham *nikoh*, *nikohlamoq*, *olib bermoq*, *qizini bermoq*, *xotin olmoq*, *sovchi* kabi etnografizmlar milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan nikohlanish er-xotinlik munosbatalarining boshlanishini ifodalashda qo‘llangan. Sanalgandan nisbatan faol qo‘llanadigan va uslubiy betaraf leksema sifatida qaraladigan nikoh leksemasiga lug‘atlarda quyidagicha izoh beriladi:

¹ Адилова Г.А. Қорақалпоғистон қозоқлари этнографизмларининг лингвомаданий таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Нукус, 2018. – 32 б.; Ашууров Д. “Алпомиш” дostonининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Наманган, 2021. – 155 б.



“Nikoh erkak va ayolning tarixan shakllangan va qonun bilan yoki din tomonidan mustahkamlangan oila qurish shaklidir”².

Keltirilgan matn zamonaviy maxsus lug‘atdan olingan va *nikoh* leksemasining zamonaviy davlatchilik nuqtayi nazaridan yondashib izohlangan. Umuman, O‘zbekistonda nikohning dunyoviy-demokratik shakli joriy etilgan bo‘lib, u er va xotin o‘rtasidagi teng huquqlilik tamoyiliga asoslanadi va monogam nikohni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu tizim erkak va ayolning teng huquqqa ega ekanligini e‘tirof etib, ularning o‘zaro munosabatlarida tenglik va adolatni ta‘minlashga qaratilgan. Nikoh faqat tomonlarning o‘z xohish-irodasi va ixtiyoriy roziligi asosida tuziladi, bu esa majburlash yoki zo‘rlilikning har qanday shaklini inkor etadi. Ushbu yondashuv oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta‘minlash bilan birga, jamiyatda gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Dunyoviy-demokratik nikoh tizimi o‘zbek xalqining an‘anaviy qadriyatlarini zamonaviy huquqiy me‘yorlar bilan uyg‘unlashtirib, oila institutining mustahkamlanishiga yordam beradi. Natijada bunday nikoh shakli oilaviy hayotda o‘zaro hurmat, erkinlik va tenglikka asoslangan muhitni shakllantiradi. Dostonda qo‘llangan “olib bermoq”, “qizini bermoq” birikmali etnografizmlari esa nikohga kirishish bo‘yicha milliy madaniyatimizdagi lisoniy imkoniyatlardan kelib chiqib kiritilgan. Zero, o‘zbek mentalitetida turmushga chiquvchi qiz kuyovning uyiga ko‘chib o‘tadi. Shu sababli o‘zbek xalqi nutqida “olib bermoq”, “qizini bermoq” etnografizmlari shakllangan. Etnografizmlarning birinchisi (olib bermoq) yigitning qarindoshlari tomonidan qo‘llangan bo‘lsa, ikkinchisi (qizini bermoq) qizning otanasiga nisbatan qo‘llangan. Garchi dostonda Ravshanbek nikohdan keyin Gajdumbeknikida istiqomat qilsa-da, unga nisbatan “nikohlab bermoq” etnografizmi qo‘llanadi: *“Gajdumbek Bibi Hilolni Ravshanbekka nikohlab berdi”³*. Tabiiyki, bu jumla milliy madaniyatimiz bo‘yicha o‘rinlashgan urf-odatlar asosida shakllangan. Shu sababli Ravshanbekning o‘z yurtiga ketish xohishini, birinchidan, Vatanga bo‘lgan muhabbat bilan bog‘lansa, ikkinchidan, o‘zga yurtda, ayolning uyida yashashdan nomus qilish deb baholash mumkin.

Nikoh bilan bog‘liq etnografizmlarning dostonda o‘ziga xos tarzda qo‘llanishini To‘liboy sinchi va Bibi Oyshaning nikohida ham ko‘rishimiz mumkin. Ravshanbekning Urayxonga o‘z qavmi-nasabidan darak berayotgan o‘rinda bu nikoh haqida ma‘lumot beradi:

“Mening otamning katta yurti bor edi. Otamning otasining oti Qovishtixon. Odilxon podsho Qovishtixonning yurtiga yovlab bordi, uni o‘ldirdi, otamni bandi qilib olib, xizmatkor qildi. Otam To‘liboy sinchi edi. Otam Odilxonning xizmatida yura

² Юридик атамалар комусий луғати. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б.254. – 432 б.

³ Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi: Xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. – B.27. – 208 b.



bergan. Bir kunlari Odilxon podsho, “Kel-e, deb Bibi Oysha degan To‘liboy ham o‘zimning suyagim”, – deb, *qizini bergan ekan*, Men shu Bibi Oyshadan bo‘lgan ekanman. Mening nasabim – shu”⁴.

Keltirilgan parchada Odilxonning asrab olgan og‘li To‘liboy sinchiga qizi Bibi Oyshani nikohlab berganligi haqidagi ma‘lumot berilgan. Bu o‘rinda “nikohga kirishish” tushunchasining “qizini bermoq” shaklidan foydalanilgan. Xuddi shu vaziyat doston boshida quyidagicha tasvirlanadi:

Fikrlardan shu ma‘lum bo‘ladiki, nikoh va u bilan bog‘liq etnografizmlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodida xalq madaniyati, urf-odatlari va ma‘naviy qarashlarini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish o‘rinli bo‘ladi: “Nikoh to‘yigacha bo‘lgan muddatlarda ro‘mol o‘rash, sovchi qo‘yish, o‘g‘rincha qallicqa borish kabi etnografizmlar uchraydi. Kuyovning kelin bilan maxfiy uchrashuvi rasm-udumi asli matriaxal nikoh marosimi bilan bog‘liq odatlardanligi bu etnografizmning qadimiyligini ko‘rsatadi”⁵. Ma‘lum bo‘ladiki, *nikoh, to‘y, sovchilik* kabi etnografizmlar qadimdan o‘zbek xalqi nutqida faol qo‘llanib kelinmoqda. Etnografizmlar nafaqat o‘zbek xalqining, balki qardosh xalqlarning ham umumiy urf-odatlarini o‘z ichiga olishi tabiiy holatdir. Chunki qadimdan qo‘shni xalqlar o‘rtasida quda-andachilik va qarindosh-urug‘chilik an‘analari saqlanib kelgan. Faqatgina bu kabi etnografizmlarning nomlanishi yoki o‘tkazilishidagi ba‘zi farqlar bo‘lishi mumkin. Etnografizmlarda xalqning milliy qadriyatlar, an‘ana va marosimlari, milliy tili, xarakteri va mentaliteti to‘liq aks etadi, ya‘ni xalq madaniyatining mohiyati namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, milliy madaniyat etnografizmlar orqali avlodlardan avlodlarga meros sifatida o‘tib keladi. Xalq madaniyatini etnografizmlar orqali o‘rganish esa o‘sha xalq haqida to‘g‘ri xulosalar chiqarish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адилова Г.А. Қорақалпоғистон қозоқлари этнографизмларининг лингвомаданий таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Нукус, 2018. – 32 б.
2. Ашуров Д. “Алпомиш” достонининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Наманган, 2021. – 155 б.
3. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi: Xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. – B.27. – 208 b.
4. Жабборов И. “Алпомиш” достонининг тарихий-этнографик аҳамияти // “Алпомиш” достони ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзусидаги халқаро конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.42.
5. Юридик атамалар қомусий луғати. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б.254. – 432 б.

⁴ Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi: Xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. – B.52. – 208 b.

⁵ Жабборов И. “Алпомиш” достонининг тарихий-этнографик аҳамияти // “Алпомиш” достони ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзусидаги халқаро конференция материаллари. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.42.